

TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TIL O'RGANISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Ilmiy rahbar: Egamberdiyev J.J.

*Andijon davlat chet tillari instituti Ingliz tili filologiyasi va o'qitish
metodikasi va tarjimashunoslik nazariyasi fakulteti
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
+998934155525*

Ma'murova Nigoraxon Jo'rabek qizi

*Filologiya va tillarni o'qitish ingliz tili yo'nalishi talabasi
+998508846888
n85554694@gmail.com*

Annotatsiya: XXI asr texnologiyalar asri deb e'lon qilingandan so'ng, hozirgi kunga qadar u barcha sohalarni rivojlantirishda muhim omil sifatida ommalashib bormoqda. Ushbu maqolada mana shunday sohalardan biri bo'lgan ta'limda texnologiyalarning tutgan o'rnini haqida so'z yuritiladi. Yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, texnologiyalar orqali yangi til o'rganishning imkoniyatlari va muammolari haqida so'z boradi.

Аннотация: С момента провозглашения XXI века веком технологий, до настоящего времени они продолжают играть важную роль в развитии всех сфер жизни. В данной статье рассматривается роль технологий в сфере образования. Более конкретно, речь идет о возможностях и проблемах изучения новых языков с использованием технологий.

Kalit so'zlar: til o'rganish, sun'iy intellekt, mobil ilovalar, online ta'lim, ijtimoiy tarmoqlar, eshitish va ko'rish orqali o'rganish.

Ключевые слова: изучение языков, искусственный интеллект, мобильные приложения, онлайн-обучение, социальные сети, изучение через аудио и видео.

Keywords: language learning, artificial intelligence, mobile applications, online education, social media, learning through listening and watching.

Til — bu insonlarning fikrlarini, his-tuyg'ularini, bilim va tajribalarini bir biriga ifodalash, muloqot qilish uchun foydalanadigan belgilar, ya'ni so'zlar, tovushlar, imo-ishoralarning tizimli majmuasi hisoblanadi. Til nafaqat gapirish va yozish vositasi, balki madaniyat va jamiyatning muhim qismi hisoblanadi.

Tilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'zaro axborot almashish
- o'ylash qobiliyatini shakllantirish va uni ifodalash
- jamiyatda muloqot qilish va munosabatlarni tartibga solish

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday holatning asosiy sababi shundaki, uzoq yillar davomida an'anaviy ta'lim tizimida o'quvchilar, asosan, tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar esa ularni bilimlarni mustaqil ravishda izlab topishga, tahlil qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltirmoqda. Bu esa o'quvchini faol fikrlashga, muammoli vaziyatlarni hal qilishga, ijodiy yondashuvga undaydi.

Barchamizga ma'lumki, til — bu o'zaro muloqot vositasi, tafakkur ifodasi va insoniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Har bir xalq uchun o'z ona tili bebaho qadriyat, millatning g'ururi hisoblanadi. Til millatning ongi va xotirasi, ruhiyati, ma'naviy va madaniy qiyofasi, milliy qadriyatlari hamda tarixiy merosidir. Shu sababli tilning millat, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni beqiyos bo'lib, u doimo e'tiborda bo'lishi lozim. Jamiyat taraqqiy etgan sari, tilga bo'lgan muhabbat va e'tibor ham ortib boradi. Ayni paytda, ijtimoiy hayotdagi har qanday taraqqiyot tildagi o'zgarish va rivojlanishlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

XXI asr — axborot texnologiyalari asri bo'lib, ayniqsa til o'qitish jarayoniga kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Agar XX asrda bu katta muammo sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda bu vositalardan til o'qitishda samarali foydalanish yo'lga qo'yilgan. Kompyuter texnologiyalari yordamida til o'rganish nafaqat osonlashdi, balki o'quvchilar uchun yanada qiziqarli, samarali va interaktiv tus oldi.

Ayniqsa, bugungi yoshlar orasida mobil ilovalar yordamida til o'rganish keng tarqalmoqda. Duolingo, Memrise, Babbel, Busuu kabi ilovalar foydalanuvchilarga yangi so'zlarni o'rganish, grammatikani mustahkamlash, talaffuzni yaxshilash va kundalik so'zlashuvga oid mashqlarni bajarish imkonini beradi. Bu ilovalar o'yin shaklidagi darslar, testlar va eshitish topshiriqlari orqali o'rganishni qiziqarli va interaktiv holga keltiradi. Mobil ilovalarning asosiy afzalligi — ularni istalgan joyda va vaqtda foydalanish mumkinligidir, bu esa ta'limni yanada erkin va moslashuvchan qiladi.

Texnologiya yordamida til o'rganish bir qancha imkoniyatlarni ochib beradi. Bularning bir qanchasini sanab o'tishimiz mumkin:

- bugungi kunda internet orqali istalgan tilda dars materiallarini topish, video, audio, maqola yoki testlardan foydalanish juda oson bo'lib qoldi. Biz uydan chiqmasdan turib ham chet tilini o'rganishimiz mumkin — bu ilgarilari ilojisiz narsa edi. Mobil ilovalar (Duolingo, Memrise, Busuu, Falou va boshqalar) yordamida istalgan vaqtda, hatto avtobusda ketayotganda ham mashq qilib, o'rganishni davom ettirish mumkin.

- texnologiyalar har bir foydalanuvchining darajasiga qarab o'rgatadi. Sun'iy

intellekt asosidagi platformalar (masalan, ChatGPT) bizning saviyamiz, xatolarimiz va ehtiyojlarimizga mos tarzda til o'rganishga yordam beradi.

-virtual suhbatdoshlar, real vaqtli tarjima, subtitrlar bilan filmlar tomosha qilish, podkastlar tinglash orqali biz tilni o'rganishda "chet tilida yashayotgandek" bo'lishimiz mumkin. Bu real muhitda o'rganishga yaqinlashishni bildiradi.

- ilovalardagi reytinglar, ball to'plash tizimi, kundalik reja — bular barchasi o'quvchini zeriktirmaslik, qiziqish davomiyligini saqlab qolish uchun ishlab chiqilgan. Oddiy darsdan ko'ra o'yin shaklidagi dars ko'proq foyda beradi. Ammo shunga yarasha uning kamchiliklari borligini ham unutmaslik kerak.

-ilova yoki sayt orqali o'rgana boshlagan odamni hech kim nazorat qilmaydi. O'zimizga qat'iy reja qo'ya olmasak, "ertaga qilaman" deb o'rganishni cho'zib yuboramiz. Har kuni mashq qilish kerak, aks holda natija bo'lmaydi.

- ko'pchilik faqat YouTube ilovasidan video ko'rib, uni tinglab yurish bilangina tilni o'rganaman deb o'ylaydi. Bu esa passiv o'rganishdan boshqa hech narsa emas. Tilni yaxshi bilish uchun o'zimiz uchun hech bo'lmaganda qisqa qaydlar yozib borishimiz, ularni kundalik suhbat va dialoglarda ishlatganda holda gapirib muntazam ravishda mashq qilib borishimiz ham kerak.

- mobil ilova biz bilan yozma suhbat quradi, lekin jonli odam bilan gaplashgandan atmosferani bera olmaydi. Bu esa so'zlashish (speaking) ko'nikmasi sustlashib, bir pozada "qotib qolish"ga olib keladi. Odamlar bilan gaplashib mashq qilib ko'rmasak, bilganlarimizni amalda qo'llay olmaymiz.

- internetda noto'g'ri ma'lumotlarni ham yo'q deya olmaymiz. Ba'zi videolarda grammatik xatolar bo'lishi mumkin yoki so'zlar noto'g'ri talaffuz qilinadi. Har ko'rgan va qabul qilgan axborotni to'g'ri deb qabul qilish xatoga olib keladi.

- telefon bilan o'rganish yaxshi, lekin shu telefonning o'zida Instagram, TikTok, Telegram kabi ta'limdan chalg'ituvchi ilova ham bor. Bu ilovalar orqali o'qishga kirishib, bir necha daqiqadan keyin boshqa narsaga chalg'ib ketish juda oson. Natijada o'rganish tartibsiz va bo'ladi va bundan kutilayotgan natija orqaga surilib boraveradi.

Qisqa qilib aytganda, texnologiyalar til o'rganishga yordam beradi, lekin ular biz o'ylagandek "mo'jiza" emas. Ularni to'g'ri ishlatmasak, shunchaki vaqtimiz zoye ketadi, lekin til o'rganish qolib ketaveradi. Doim o'z ustimizda ishlashimiz, tartib qoidaga amal qilib intizomli bo'lishimiz kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda texnologiyalar til o'rganishni ancha osonlashtirib qo'ydi. Telefon yoki kompyuter orqali istagan tilimizni o'rganishimiz mumkin — ilovalar, saytlar, sun'iy intellektli dasturlar bunga yordam beradi. Lekin bu vositalar faqatgina o'zi ishlamaydi. O'rganaman degan odam har kuni oz bo'lsa ham vaqt ajratib, mashq qilib, harakat qilishi kerak. Texnologiya yordam beradi, lekin o'rganish o'zimizga bog'liq. Shuning uchun to'g'ri yo'ldan foydalanib, til o'rganishni odatga aylantira olsak, albatta yaxshi natijalarga erishamiz.

Foydalaniladigan adabiyot va manbalar:

1. <https://cyberleninka.ru>
2. www.in-academy.uz
3. Andijon Davlat Chet Tillari Instituti tahririyati: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2-qism)